

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIK OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM JARAYONINI  
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA‘MINLASH  
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya  
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference  
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN  
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF  
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION**

**October 15, 2024**

**1974 2024**  
**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему  
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА  
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ  
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,  
которая состоится 15 октября 2024 года**

**JIZZAX – 2024**

# 1-ShO'BA. PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGIGA ASOSLANGAN TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

## KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRUVCHI EVRISTIK TOPSHIRIQLAR VA ULARNING AHAMIYATI

*Qodirov G'ayrat O'roqboevich*

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi, dotsent*

Hozirgi XXI asrda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning yangi usul va vositalarini tez rivojlantirish, uning o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ijobiy tomonlari qanday ekanligini yoritib berish va o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning o'rni alohida ahamiyat kasb etilishini tushuntirishdan iborat. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga akslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi. Bugungi davr kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun o'tmishdan bizgacha yetib kelgan o'qitish va tarbiyalashning qadimgi modellarini, tajribalarni bilish zarur, aks holda ayon bo'lgan bilimlarning qaytadan kashf qilinishi yoki xatolarning yana takrorlanishiga olib kelishi mumkin. Kasbiy ta'lim-tarbiyaning hozirgi kundagi ko'plab muammolari avvallari ham bo'lgan. Tarix ma'lum darajada takrorlanadi, uning tajriba va saboqlarini kelajak uchun o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi evristik topshiriqlarda ta'lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish vazifalari belgilab berilgan. Bu ta'lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta'minlash, ularni o'zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi evristik topshiriqlar ta'limni zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limini amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi 14 bo'libgina qolmay, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi evristik topshiriqlar yondashuviga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi.

Bugungi kunda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qonunda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida o'qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaganday. Shunga ko'ra yosh avlod ta'lim olish davrlaridagi

rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi psixologiyasini to'g'ri baholay olish bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'limning turli darajalarida mutaxassislarni tayyorlash turli muammolarni hal qilish pedagogik oliy ta'lim muassasalarida o'qishning butun jarayoni davomida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish zarurati va imkoniyati mavjud. Taklif etilib kelinayotgan yondashuvning afzalligi shundaki, talabalar bosqichma-bosqich fan sohasidagi nazariy bilimlardan amaliyotga qo'llay oladilar, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Golish L.V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. – T., 2001. – 68 b.
4. Nuridinov B.S., O'rinov U.A. Ta'lim sohasidagi malakali kadrlar tayyorlash omili // Kasb-hunar ta'limi. – T., 2003. № 6. B.11.
5. O'rinov U.A. Ishlab chiqarish ta'limida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish usullari // Kasb-hunar ta'limi. – T., 2020. № 3 35–39 b.
6. O'ktamova Sh.H. Education and innovative research 2022-y. № 1.144–153-b. 7. Xolov X.M. PedagogS international research journal. Volume–5, Issue–1, March–2022. 73–77-b

#### **BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA BOSHQARUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ASPEKTI**

*Ablyakimova Refide Izmerovna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Maktab menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi*

*E-mail address: [ablyakimova.refide@mail.ru](mailto:ablyakimova.refide@mail.ru)*

#### **Annotatsiya:**

*Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarbligi, ahamiyati va amaldagi holati tahlili atroflicha yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, boshqaruv, xotin-qizlar, gender tengligi, barkamol avlod, rahbar, sivilizatsiya, takomillashtirish.*

#### **Abstract:**

*The article reveals in detail the relevance, importance and current state of development of management competence in future teachers.*

*Keywords: state, society, goverance, women, gender equality, harmoniously developed generation, leader, civilization, improvement, national mentality.*

#### **Аннотация:**

*В статье подробно раскрыта актуальность, важность и современное состояние развития управленческой компнетентности у будущих учителей.*

*Ключевые слова: государство, общество, управление, женщины, гендерное равенство, зрелое поколение, лидер, цивилизация, совершенствование.*

Bo'lajak o'qituvchi xotin-qizlarni mavqeini oshirish shaxsni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlarning bir qismi sifatida ijtimoiy-pedagogik aspektlarga ega. Shu boisdan xotin-qizlarning